



Yollanib yoki "Moviy karta/YI" (Blaue Karte/EU) bo'yicha ishlash maqsadida viza olish uchun kerakli hujjatlar haqida eslatma

Yollanib ishlash („Au-Pair“dan tashqari) **maqsadida olinadigan viza** uchun quyidagi hujjatlarni topshirishingiz lozim:

*Har bir hujjat, ma'lumotnoma/tarjima **asli hamda ikkitadan nusxasi** bilan topshirilishi lozim (asl nusxalar hujjatlaringiz ko'rib chiqilganidan keyin Sizga qaytariladi). Xorijiy tilda to'ldirilgan hujjatlar rasmiy vakolatga ega tarjimon tomonidan nemis tiliga o'g'irilgan bo'lishi shart.*

- **Nemis tilida batafsil to'ldirilgan va arizachi tomonidan imzolangan ikkita viza talabnoma blanki** hamda **uchta biometrik fotosurat**. Blankni elchixonaning internetdagi www.taschkent.diplo.de web-sahifasidan olishingiz mumkin.
- **Pasport** va uning 2-3 (shaxsiy ma'lumotlar) hamda O'zbekistonda ro'yxatga qo'yilganlik to'g'risidagi ma'lumotlar haqidagi sahifalarining nusxasi.
- **Germaniya Federativ Respublikasida istiqomat qilish haqidagi qonunning 54-moddasi 6-kichik bandi va 55-moddasi 2-bandi 1-kichik bandiga** binoan shaxsiy imzo qo'yilgan [ariza](#);
- **Aniq ish joyi taklif etilganligini tasdiqlovchi hujjat**. Germaniya Federativ Respublikasi hududiga kasb bo'yicha ishlash uchun ruxsatnoma zarur bo'lgan taqdirda, uning berilishi kafillangan hujjat taqdim etilishi lozim;
- **Germaniya Federativ Respublikasi hududida bo'lish vaqtida to'liq amal qiladigan tibbiy sug'urta mavjudligini tasdiqlovchi hujjat**;
- Mehnat faoliyati aks ettirilgan **tarjimai hol**, kasbiy ma'lumot haqidagi hujjatlar (attestat, diplomlar, mehnat daftarchasi va boshqalar) va ularning nemis tiliga qilingan va notarial tasdiqlangan tarjimasi.

Agarda Siz "Moviy Karta/YI" (Blaue Karte/EU)ga hujjat topshmoqchi bo'lsangiz, bu haqda qo'shimcha ma'lumotlarni [web-sahifasidan](#) olishingiz mumkin.

- Yuqorida sanab o'tilgan hujjatlarga qo'shimcha tarzda quyidagi hujjatlar asli hamda ulardan ikkitadan nusxa talab etiladi.
- Oliy ma'lumot haqida Germaniya oliy o'quv yurti diplomi yoki Germaniyada tan olingan xorijiy diplom (Sizning xorijiy diplomingiz Germaniyaning qaysi diplomiga mos kelishini www.anabin.de web-sahifasidan bilib olishingiz mumkin
- yillik ish haqi chegirmalarsiz 47.600 yevro= (oyiga 3.967 yevro) ni tashkil etgan va Germaniyadagi ish beruvchi bilan tuzilgan mehnat shartnomasi yoki ish beruvchining ishga joylashtirish haqida majburiyati (tabiatshunos, matematik, muhandis, vrach yoki axborot texnologiyalari bo'yicha mutaxassis sifatida 37.128 yevro [3094 yevro]). Agar nemis tilini bilmasangiz, ish tili bo'lgan boshqa xorijiy tilni (masalan, ingliz tili) bilishingiz haqida hujjat taqdim etilishi lozim.

- Maxsus ruxsatnoma asosida olib boriladigan faoliyat turlari masalan, muhandislik yoki tibbiyot sohasidagi faoliyat uchun beriladigan hujjat "Moviy Karta/YI" (Blaue Karte/EU) berilishidan oldin taqdim etilishi lozim.

Sizning viza arizangizni ko'rib chiqish uchun, odatda, Mehnat ishlari bo'yicha Federal agentlikning Siz istiqomat qilishingiz ko'zda tutilayotgan manzil bo'yicha joylashgan bo'limining hamda zarur hollarda, Germaniyaning boshqa rasmiy idoralarining roziligi kerak bo'ladi. Shu sababdan, yashash ko'zda tutilayotgan **aniq manzil** (ko'cha, pochta indeksi va joy nomi) talabnomada **to'liq** ko'rsatilishi kerak. Germaniya hududiga kirib kelgandan so'ng, bu haqda yashash joyingizdagi xorijiy fuqarolar ishlari bo'yicha ma'sul idoraga darhol xabar qilishingiz lozim. Ushbu idora Germaniyada vaqtincha qolish bo'yicha yakuniy qarorni qabul qiladi.

Viza Sizga Germaniyada **faqat arizangizda ko'rsatilgan ish faoliyatini** olib borish huquqini berishini inobatga olishingizni so'raymiz.

Tajribaga ko'ra, viza talabnomangizni **ko'rib chiqish muddati 6-8 haftani** tashkil etadi, biroq, ayrim hollarda ko'rib chiqish muddati yuqorida keltirilgan muddatdan farq qilishi mumkin.

Viza talabnomangiz bo'yicha qaror qabul qilinsa, elchixonona Siz bilan bog'lanadi. Q

Rad javoblari (elektron) pochta orqali yuboriladi yoki arizachi tomonidan shaxsan olib ketilishi mumkin. Hujjatlarni ko'rib chiqish davrida ish holati bo'yicha hech qanday ma'lumot berilmaydi, hatto ish beruvchi va yoki ish holatiga aloqasi bo'lmagan boshqa shaxslarga ham.

Viza badali 75 yevroni tashkil etadi va to'lov hujjat topshirilayotganda **faqat o'zbek so'mida** (amal qilayotgan kursga muvofiq) amalga oshiriladi. Kupyuralar 2001 yildan eski bo'lmasligi, yaxshi holatda, muhr va yozuvlarsiz bo'lishi shart.

Qo'shimcha ma'lumotlar va viza bo'limining qabul vaqtlari [„Viza olish uchun kerakli hujjatlarni topshirish haqida eslatma“](#) va [„Qabulga yozilish tizimi haqidagi eslatma“](#) da ko'rsatilgan.